

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi
№ MD-A/3-16
2023 yil



“Davlat va huquq asoslari”
yoʻnalishi boʻyicha akademik litseylar pedagog xodimlarini
malakasini oshirish kursining oʻquv dasturi

malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzluksiz rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- pedagoglarning zamonaviy talablarga mos holda akademik litseylardagi o'qitish sifati va samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;
- pedagog xodimlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish;
- o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

Kurs yakunida tinglovchilar quyidagi yo'nalishlarda bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumining asosiy prinsiplari;
- fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari;
- jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlari;
- jamiyatning iqtisodiy asoslari;
- O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi;
- O'zbekiston Respublikasi saylov tizimi;
- O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati, oliy va mahalliy organlarining tuzilishi va vakolatlari;
- Yangi mehnat qonunchiligi tushunchasi, predmeti va metodlari, mehnat huquqining manbalari, mehnat huquqidagi unifikatsiya va kodifikatsiya jarayonlari, mehnat munosabatlarni markazlashgan va lokal usullar bilan tartibga solinishi;
- Yangi mehnat qonunchiligida ish vaqti va dam olish vaqti, ish haqi va kafolatli to'lovlar haqida nazariy bilimlar to'g'risida;
- fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy asoslari;
- fuqaroviylik, fuqaro faolligi, demokratik institutlarni rivojlantirish;
- qonun ustuvorligi, saylov huquqi erkinligi;
- fuqarolik jamiyatini barpo etishning ilmiy-metodologik asoslari,

mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish;

- siyosiy partiyalarning o'rni va ahamiyati, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari;

- millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik;
- jamoatchilik nazorati va davlat organlari faoliyatining ochiqligi, ijtimoiy sheriklik;

- faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari haqida *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- kompetensiyalarga asoslangan ta'lim (competence-based learning) modelidan samarali foydalanish;
- ta'limni insonparvarlashtirish asosida kasbiy malakalarni uzluksiz rivojlantirish;
- raqamli va bulut texnologiyalari asosida o'qituvchilarni hamkorlikda ishlashini tashkil etish;
- seminar mashg'ulotlarini o'tkazishning zamonaviy usullarini qo'llash;
- o'quv materiallarini yaratish modellari keng foydalanish;
- loyiha ishlarini tashkillashtirish va baholash, hozirgi zamon davlat funksiyalarini baholash;
- kasbiy-pedagogik ta'lim mazmunini individuallashtirish;
- pedagogik mahoratni namoyish etishda ilg'or tajribalardan foydalanish;
- kasbiy va kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga doir metod va texnologiyalarni to'g'ri tanlash;
- kasbiy kompetentlik sifatleri va pedagogik mahorat elementlarini o'zlashtirish;
- pedagogda kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish;
- kreativ yondashuv asosida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mazmunini shakllantirish;
- zamonaviy o'quv materiallarini (Sillabus, O'UM, keyslar banki, assessmentlar bazasi, loyiha ishlari va boshq.) yaratish texnologiyalaridan samarali foydalanish;
- ta'limda innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- ma'ruza mashg'ulotlarini o'tkazishning innovatsion usullarini qo'llash;
- pedagogik dizayn asoslaridan kasbiy faoliyatda samarali foydalanish;
- kasbiy kompetentlik, pedagogik mahoratga doir xorijiy va mahalliy tajribalarni umumlashtirish;

- muloqot shaklidagi interaktiv ma'ruzalar o'tkazish;
- O'z bilimlarini tahlil qilish, kasbiy faoliyatning mos sohalarida yangi mehnat huquqiga oid milliy va xalqaro me'yoriy hujjatlardan foydalanish;
- Yangi mehnat huquqi normalarini tahlil qilishi, xususiy munosabatlarda qonunlarga rioya etish darajasini belgilash, qaysi huquq normalari qo'llanishi lozimligini aniqlash yuzasidan tavsiya etilgan ma'lumotlardan xabardor bo'lish va ularni amaliyotga qo'llash malakalariga ega bo'lishi lozim;
- muloqot shaklidagi interaktiv ma'ruzalar o'tkazish;
- mamlakatni demokratlashtirish va fuqarolik jamiyatini qurish bo'yicha o'zining erkin fikrini bildirib olish;
- mamlakatimizda erishilayotgan yutuqlari va ularning xalqaro miqyosda e'tirof etilishini tahlil qilish *ko'nikma* va *malakalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- pedagogda kasbiy kompetentlik sifatlarini rivojlantirish;
- pedagogik muloqotni samarali tashkil etish;
- kasbiy-pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlovchi kreativ pedagogika asoslarini egallash;
- kreativ yondashuvdan o'quv manbalari, o'quv kontentini samarali yaratishning muhim omili sifatida foydalanish;
- ta'limda ilg'or xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlilini amalga oshirish;
- pedagogik dizayn va zamonaviy o'quv kontentlarini yaratish;
- pedagogik mahorat, kompetentlik va kreativlikdan kasbiy faoliyatda keng foydalanish;
- shaxs va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib va davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar uslubi va malakasi shakllantirish;
- O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi va uning yo'nalishlariga doir maqsadlarining to'liq amalga oshirilishi bo'yicha ko'nikma malakalarni shakllantirish;
- Davlat haqida, islohotlar, jamiyat, fuqarolik jamiyatiga, huquqiy madaniyat bo'yicha yetarli bilimlarga ega bo'lish;
- mutaxassislik to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish;
- fanning mazmun-mohiyati va o'ziga xosligi, fan bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar haqida tasavvurga ega bo'lish kabi *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Kursning hajmi

Malaka oshirish kursi 8 kredit (48 soat)ni tashkil etadi. Bunda o'quv dasturining 4 kredit (24 soat)ga mo'ljallangan tayanch modullari ishdan ajralgan

holda qayta tayyorlash va malaka oshirish mintaqaviy markazlarida o'qish orqali hamda ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirish shakllarini bajargan holda kamida 4 kredit yig'ish orqali amalga oshiriladi. Mustaqil malaka oshirish shaklida pedagog xodimlar tanlov modullarini o'zlashtirish orqali hamda so'ngi bir yilda bajargan kasbiy faoliyat natijalari bo'yicha kreditlar yig'ib boradilar. Malaka oshirish davomida kamida 8 kredit birligini to'plagan pedagog xodimlarga QR-kod tushirilgan elektron shakldagi sertifikat taqdim etiladi.

“DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI” YO'NALISHI BO'YICHA MALAKA OSHIRISH KURSI TAYANCH O'QUV MODULLARINING MAZMUNI

1.1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun va mohiyati.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ishlab chiqish konseptual asoslari. O'zbekistonning mustaqillikka qadar konstitutsiyaviy tarixi. TASSR, Buxoro va Xorazm xalq sovet respublikalarining Konstitutsiyalari va ularning mustabid tuzumga xos jihatlari. O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy islohotlarning hususiyatlari va asosiy bosqichlari. 1992 yilgi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining tayyorlanishi, umumxalq muhokamasidan o'tkazilishi, qabul qilinishi va amalga kiritilishi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari. O'zbekiston Respublikasida hokimiyatning bo'linish prinsipi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning xalq nomidan hokimiyatni amalga oshirishi. O'zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligi prinsipi va umuminsoniy qadriyatlar. Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipi tushunchasi va mohiyati. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konstitutsiyaviy asoslari. O'zbekiston Respublikasi – xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ekti. O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplari.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqishi va uni qabul qilishdagi ijtimoiy zaruriyat. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya loyihasining tayyorlanishi, qabul qilinishi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Xalqaro huquq normalarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi ifodasi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari. O'zbekiston Respublikasida shaxsning huquqiy holati

tushunchasi. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik. O'zbekiston Respublikasida inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlari tizimi. Shaxsiy huquq va erkinliklar. Siyosiy huquqlar. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar. O'zbekistonda inson hamda fuqaro huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlari. Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari.

1.2. Yangi O'zbekiston Mehnat huquqining mazmun va mohiyati.

Yangi Mehnat Kodeksida individual mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solish tamoyillari. Mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va kasb-hunar sohasida kamstishlarni taqiqlash. Mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash; mehnat sohasida ijtimoiy sheriklik. Mehnat huquqlari ta'minlanganligini va mehnat majburiyatlarini bajarilishini kafolatlash. Xodimning huquqiy holatining yomonlashishiga yo'l qo'yilmashligi.

Yangi mehnat qonunchiligida mehnat munosabatlarini sub'ektlarining asosiy huquqlari, erkinliklari va majburiyatlarining nazariy asoslari. "Xodimning asosiy huquqlari". Mehnat shartnomasi bo'yicha o'ziga yuklangan mehnat majburiyatlarini vijdonan bajarish. Ichki mehnat tartib qoidalariga rioya qilish. Mehnat intizomiga rioya qilish. Belgilangan mehnat me'yorlariga rioya qilish. Mehnatni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligini ta'minlash talablariga rioya qilish. Ish beruvchining va boshqa xodimlarning mulkidan avaylab foydalanish. Ish beruvchiga yetkazilgan zararni qoplash. O'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lgan davlat sirlarini, xizmat, tijorat yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor etmaslik. Odamlarning hayoti va sog'lig'iga, ish beruvchi mulkining saqlanishiga tahdid soladigan vaziyat yuzaga kelganligi to'g'risida ish beruvchiga yoki bevosita rahbarga darhol xabar berish. Boshqa xodimlarning mehnat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qiladigan harakatlar qilmaslik.

Yangi mehnat qonunchiligi asosida aholining ijtimoiy ehtiyojmand xodimlarning intiyozlari. Ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish tartibi tartibga solinishi. Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari. "Job offer" tartibga solinishi. O'rindosh sifatida ishlaydigan shaxslarning mehnatini tartibga solish xususiyatlari. Yangi Mehnat kodeksining o'ziga xos jihati. Mehnat munosabatlarini tartibga solishda "gender neytrallik" tamoyillari.

1.3. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida huquqiy munosabatlar.

"Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida huquqiy munosabatlar" modulini o'qitilishdan ko'zlangan maqsad va vazifalar. Yangi O'zbekiston orzusi va

fenomeni. Yangi O'zbekiston: yangilanish va taraqqiyot omillari. Yangilanayotgan O'zbekiston. Jamiyat – islohotlar tashabbuskori. Jamiyatimizning yangi qiyofasi. Yangi O'zbekistonda barpo etishning mantiqiy va umumbashariy omillari.

Inson qadrimini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish. "Davlat – inson uchun" tamoyili – demokratik islohotlar mezon. Davlat organlari–xalqqa xizmat qilishning samarali vositasi. Davlat boshqaruvining sivilizatsiyaviy imkoniyatlari. Hududiy masalalarni hal qilish mas'uliyati. Kuchli parlament va xalq vakillik organlari – Yangi O'zbekistonning tayanchidir.

Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur sharti. Qonun ustuvorligi tushunchasi. Fuqarolik jamiyatini qurishda qonun ustuvorligi tamoyilining mustahkamlanishi. Hokimiyatlarning bo'linish prinsipi va konseptual asoslari. Konstitutsiya va qonunlarda adolat hamda inson manfaatlarining ustuvorligi. Qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti. Mustaqil va o'dil sud tizimi.

1.4. Modulga oid dolzarb masalalar tahlili.

Tinglovchilar mustaqil ravishda o'quv modulining dolzarb masalalarini tahlil etib, ularni hal etish usullari to'g'risida fikr-mulohazalar yuritadilar.

1.5. Yakuniy nazorat.

Yakuniy nazorat tayanch modulni mazmunidan kelib chiqib onlayn test sinovlari asosida tashkil etiladi. Onlayn test sinovlarida 60 foizdan yuqori natijaga erishgan tinglovchilarga tayanch modulini to'liq o'zlashtirgan hisoblanadi va ularga 4 kredit ajratiladi. Onlayn test sinovlarida 60 foizdan kam ko'rsatgichga erishgan tinglovchilarga ikki marta qayta topshirish imkoniyati beriladi. Qayta topshirish natijasida onlayn test sinovlaridan 60 foizdan kam ko'rsatgichga erishgan tinglovchilar kursni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modulni doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Mustaqil malaka oshirish o'quv-metodik va ilmiy-pedagogik faoliyat hamda mustaqil tajriba o'tirish natijalariga ajratilgan kreditlarni yig'ish orqali amalga oshiriladi. Kasbiy faoliyat turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish, stajirovka o'tash; iqtidorli va iste'dodli o'quvchilar bilan ishlash; ilmiy anjumanlarda ma'ruza bilan qatnashish; ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish; o'quv adabiyotlari (hammualliflikdagi darslik, o'quv qo'llanma)ni tayyorlash va nashrdan chiqarish. Mustaqil tajriba o'tirishda akademik litseylar pedagog xodimlari o'z ehtiyojlari va tanlovlaridan kelib chiqib, onlayn shakldagi tanlov modul dasturlarini o'zlashtiradilar. Mustaqil malaka oshirish shakli bo'yicha so'nggi bir yilda to'plangan kredit birliklari malaka oshirish natijalarini umumlashtirishda hisobga olinadi. Pedagog xodimlarning mustaqil malaka oshirish natijalari elektron portfolio tizimida o'z aksini topadi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild, – T., "O'zbekiston", 2017. - 592 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild, – T., "O'zbekiston", 2019. - 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – T., "O'zbekiston", 2019. - 400 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T., "O'zbekiston", 2020. - 452 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. // "Xalq so'zi", 2020 yil 24 sentabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Shanxay hamkorlik tashkiloti yig'ilishidagi nutqi. "Xalq so'zi", 2020 yil 10 noyabr.
7. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr.
8. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022 yil 20 dekabr.
9. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент: – Ўзбекистон, 2021.- 459 б.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

10. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., "O'zbekiston", 2023.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 5106-son Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi "Oliy va o'rta mahsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4391-sonli Qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrda "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarori.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-sonli Qarori.
17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-sonli Qarori.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 8 maydagi "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-67-sonli Farmoni.

III. Maxsus adabiyotlar

19. Saidov A.X. va boshqalar Konstitutsiyaviy huquq Darslik. -T. «Complex Print» nashriyoti, 2019.
20. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. Mualliflar jamoasi - T.: TDYU nashriyoti, 2012. - 649 b.
21. Xusanov O.T. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi // Darslik - T.: TDYU nashriyoti, 2012. - 564 b.
22. Jahon Konstitutsiyalari (Jahon davlatlari Konstitutsiyalari to'plami, 1-jild). Tuzuvchilar: U.Tojixonov, A.X.Saidov. T. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2001. - 457 b.
23. Xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy huquqi. Mualliflar jamoasi. Darslik. TDYU, 2010. - 610 b.
24. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. Mualliflar jamoasi - T.: TDYU nashriyoti, 2012. - 649 b.
25. Xusanov O.T. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi // Darslik - T.: TDYU nashriyoti, 2012. - 564 b.
26. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik / X.T.Odilqoriyev, O'X.Muxamedov, B.A.Saidov va boshq. Mas'ul muharrir Sh.T.Ikramov. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014.
27. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. T.: Adolat, 2013.
28. Tursunov I. Mexnat huquqi. Darslik. -T.: Moлия, 2002. 279 b.
29. Usmanova M.A., Tursunov I. Mexnat huquqi. Darslik. -T.: TDЮИ, 2006 й.
30. Usmanova M., Tursunov I. Mexnat shartnomasi. U'quv qullanma. -T.: TDЮИ, 2007.
31. Tursunov I. Mexnat huquqi. Darslik. T.: "Moлия", 2002. 279 b.
32. Usmanova M.A., Tursunov I. Mexnat huquqi. Darslik. T.: "Илм Зиё", 2012.

33. Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очик фукаролик жамиятининг шаклланиши. -Т.: Шарк, 2003.
34. Қирғизбоев М. Фукаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. - Т.: Ўзбекистон, 2010.
35. Жалилов А бoшқалар. Фукаролик жамияти асослари. - Т.: Бактрия прeсс, 2015.
36. Фукаролик жамияти. Дарслик лойиҳаси- Т.: 2016. Зиёнет.уз. Муаллифлар жамоаси.
37. Ўтамуродов А. ва бoшқалар. Фукаролик жамияти фанидан тушунча ва атамалар лугати. Лотин ёзувида. Т.: Турон-замин-зиё. 2017. 23 б.т.
38. Абдуазимов О. Фукаролик жамияти ва оммавий ахборот воситалари. - Т.: Академия, 2008.
39. Фуломов М. Махалла - фукаролик жамиятининг асоси. - Т.: Адoлат, 2003.
40. Жалилов Ш. Фукаролик жамиятининг пойдевори. - Т.: Ўзбекистон, 2003.

IV. Internet saytlar

41. <http://akadmiy.uz> (O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi)
42. <http://lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)
43. <http://eduportal.uz> (Multimediya umumta'lim dasturlarni rivojlantirish markazi)
44. <http://www.connect.uz> (O'zbekiston umumta'lim portali)
45. <http://uzsci.net> (Ilmiy ta'lim tarmog'i)
46. <http://www.ima.uz> (Intellectual mulk agentligi)
47. <http://www.academy.uz> (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi)
48. <http://www.ziynet.uz> (Axborot ta'lim tarmog'i)
49. <http://www.uzedu.uz> (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi)
50. <http://www.nuu.uz> (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti)
51. <http://www.tsil.uz> (Toshkent davlat yuridik universiteti)
52. <http://www.tuit.uz> (Toshkent axborot texnologiyalari universiteti)
53. <http://www.buxdu.uz> (Buxoro davlat universiteti)

"ISHLAB CHIQILGAN":

Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarni
qayta tayyorlash va ularning malakasini
oshirishni tashkil etish
Bosh ilmiy-metodik markazi
Direktor T.T. Shoymardonov

“ _____
M.O. _____ 2023 y.

Buxoro davlat universiteti
Rektor O.X. Xamidov
“ _____
M.O. _____ 2023 y.

Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagog
kadrlarni qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirishni metodaviy markazi
Direktor B.R. Xudoyov
“ _____
M.O. _____ 2023 y.

"KELISHILGAN":

Kadrlarni malakasini oshirish va qayta
tayyorlash bo'limi boshlig'i
“ _____
M.O. _____ 2023 y.